

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.S.Sharipova	
Bioetik bilim tushunchasining mazmun-mohiyati, uni shakllantirishning pedagogik zarurati.....	6
Sh.K.Xujamberdiyeva	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni insoniy fazilatlarini shakllantirishda badiiy asarlarning o'рни.....	11
M.B.Artikova, M.M.Mutallibjonov	
Talabalar kasbiy ma'naviyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalar tadqiqi	16
M.M.Kaxarova, N.E.Yusupova	
Ingliz tili darslarida matn bilan ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi ...	23
M.M.Yakubbayev	
Development of lingvocultural competence of students in the process of teaching german language.....	29
J.A.Yuldashev	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini tayyorlash jarayoniga aksiologik yondashuvni joriy etishning metodik xususiyatlari.....	34
X.T.Nishonova	
Methods of developing students' lexical competence through comics in English lessons in elementary grades	38
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik modeli.....	43
U.S.Do'sanov	
Oliy o'quv yurti talabalariga jismoniy tarbiya tizimida sport-sog'lomlashtirish turizmi vositalarini qo'llash metodikasi.....	47
X.X.Umarov	
Влияние высокоинтенсивной тренировочной нагрузки на организм юных гимнастов	51
Д.К.Каримов	
Мониторинг эффективности корреляционной связи спортивной специализации от типов телосложения у юных акробатов	55
З.Г.Гаппаров	
Исследование новых технологий синхронизации движения в синхронном плавании	61
M.N.Nasritdinova	
Artpedagogika fanini o'qitish jarayonida bo'lajak pedagoglar badiiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish.....	67
M.G'Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik omillari, Xitoy tajribasi	72
D.K.Baydjanova	
Bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish mazmuni	78
I.A.Raxmonov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida hayot faoliyati xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishni pedagogik muammosi.....	82

IQTISODIYOT

M.K.Abadov	
Possible consequences of the refusal to switch to a digital currency in Azerbaijan	85

FALSAFA

M.A.Mamatov	
So'fiylik – gumanistik ta'limot	90
Sh.O'.Ahrorova	
Jamiyat ma'naviy muhitida madaniyat va san'atning o'рни	98
D.Y.Qambarova	
O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ijtimoiy munosabat mezonlari.....	102



UO'K: 371.425.6

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA UMUMMADANIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**CONTENT OF THE DEVELOPMENT OF UNIVERSAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS****СОДЕРЖАНИЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Baydjanova Dinora Karimovna 
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Muallif maqolada pedagogik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish asosida chet tilidagi ma'lumotlar, jumladan, ingliz tilidagi materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikka oid ko'nikmalarni bilish, anglash va ularga ega bo'lish, bu boradagi bilimlarini o'stirish asosida o'tmish va bugundagi haqiqatlarga obyektiv munosabatini qaror toptirishga doir materiallar tahlilini keltirgan.

Abstract

The author emphasizes the improvement of the system for developing pedagogical competence, with a particular focus on the formation of general cultural competence in future teachers. Drawing on foreign language resources, including English-language materials, the article examines how future teachers develop skills related to general cultural competence, their understanding, and their mastery of these skills. The article also highlights how this knowledge fosters an objective perspective on both historical and contemporary realities.

Аннотация

В статье автор акцентирует внимание на совершенствовании системы развития педагогической компетентности и формировании общекультурной компетентности у будущих учителей. Основываясь на иностранных источниках, включая материалы на английском языке, автор анализирует процесс формирования у будущих учителей навыков, связанных с общекультурной компетентностью, их понимание и освоение. Также рассматривается повышение уровня знаний в данной области и их влияние на формирование объективного отношения к прошлым и современным реалиям.

Kalit so'zlar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetentlik, bo'lajak o'qituvchi, universal kompetentlik, umummadaniy kompetentlik, didaktik birlik, qadriyatga yo'nalganlik.

Key words: knowledge, skills, competencies, future teacher, universal competence, general cultural competence, didactic unit, value orientation.

Ключевые слова: знания, навыки, компетенции, будущий учитель, универсальная компетентность, общекультурная компетентность, дидактическая единица, ценностная ориентация.

KIRISH

Jahonda umummadaniy kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko'rish, ta'limning an'anaviy uch elementi (triada) – "bilim – ko'nikma – malaka"ni oltita birlik – "bilim – ko'nikma – malaka – amaliy faoliyat tajribasi – kompetensiya – kompetentlik" tarzida talqin etilishi asosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash tizimi yangi bosqichga olib chiqishga doir ko'plab yangicha yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ayniqsa, bo'lajak mutaxassislarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqlarning tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish tizimini takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda umummadaniy kompetentlikni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish asosida chet tilidagi ma'lumotlar, jumladan, ingliz tilidagi materiallar asosida bo'lajak o'qituvchilarda

umummadaniy kompetentlikka oid ko'nikmalarni bilish, anglash va ularga ega bo'lish, bu boradagi bilimlarini o'stirish asosida o'tmish va bugundagi haqiqatlarga obyektiv munosabatini qaror toptirishga doir ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar orqali jamiyatni reallashtirish, uning tafakkurini turli uydirmalardan tozalash, ingliz tilidagi materiallarda keltirilgan ideallarning qahramonligi, vatanparvarligi, ilm-fan, san'at, din, boshqaruv va boshqa ijtimoiy munosabatlardagi faolligini yoritish orqali umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish ham maqsad qilinmoqda. Bunday xalqaro ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda bo'lajak o'qituvchilarida ingliz tilidagi materiallar asosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Pedagogika ensiklopediyasida "kompetensiya" (lot. compete – erishyapman, munosibman, loyiqman) atamasiga "muayyan davlat organi yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar; shaxsning biror-bir sohadan xabardorligi, shu sohani bilishi darajasi" deb, pedagogik lug'atda "kompetensiya tushunchasi – sub'ektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu sub'ektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir" deb keltirilgan.

"Kompetensiya" tushunchasi pedagog olim B.X.Xodjayevning fikricha "subyektning maqsadni qo'yish, unga erishish uchun tashqi va ichki zahiralarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan kasbiy masalalarini yecha oladigan shaxsiy qobiliyatidir" – deb ifodalangan.

Umummadaniy kompetensiya esa vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, insoniyat tomonidan e'tirof etilgan madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish, xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashni o'z ichiga oladigan kompetentlik hisoblanadi.

«Universal kompetensiyalar – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim paradigmasining tarkibiy qismi sifatida» nomli loyiha doirasida oliy ta'lim talabalari uchun ishlab chiqilgan kompetensiyalar tasnifida umummadaniy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Umummadaniy kompetensiyalar – milliy va umuminsoniy madaniyat; insoniyat va inson hayotining ma'naviy-axloqiy asoslari; oila, ijtimoiy hodisa va an'analarning madaniyatshunoslikka doir asoslari; inson hayotida fan va dinning rolini anglash va faoliyat tajribasini egallash hisoblanadi.

Respublika ta'lim markazi va hamkor tashkilotlar tomonidan 2015-yilda loyiha sifatida ishlab chiqilgan uzluksiz majburiy ta'lim tizimi bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga va zaruriy bilimlar mazmuniga qo'yiladigan talablar ishlab chiqilgan bo'lib, unda talabalarning quyidagi universal kompetensiyalarga ega bo'lishlari belgilab berilgan. Unda umummadaniy kompetensiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

Umummadaniy kompetensiya – umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish; badiiy va san'at asarlarini tushunish, ta'sirlana olish; insoniyat tomonidan e'tirof etilgan madaniy ko'nikmalarga ega bo'lish (tibbiy madaniyat, ekologik madaniyat, huquqiy madaniyat, nutq madaniyati, muomala madaniyati, musiqa madaniyati, kiyinish madaniyati, iqtisodiy madaniyat, media madaniyati, va hokazo); umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an'analar va.h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo'lish; xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o'rnatilgan odob-axloq qoidalariga rioya qilish hisoblanadi.

Umummadaniy kompetentlik ijtimoiy va madaniy kompetentligining integral ko'rinishi hisoblanadi. Tadqiqotchi olim Gulnoza Rashidovanning fikricha, sub'ektning qadriyatlari va bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari uning haqiqiy ijtimoiy mavqeiga muvofiqligini, uning madaniyati, axloq va qonun darajasiga mosligini taqozo.

Pedagog olim G.Rashidova ijtimoiy kompetentlikni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi: aksiologik - asosiy hayotiy qadriyatlar ierarxiyasi shaklida;

gnoseologik - insonning o'zi bilan o'zi (o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish), o'zgaralar bilan ijtimoiy mohiyatli masalalarni hal qilishi bo'yicha ijtimoiy bilimlar;

metodologik, kategorial, refleksiv (aks ettiruvchi) va loyihaviy fikrlashni nazarda tutadi; bunday tafakkur birlashmaning tizimli aloqalari bilan ishlaydi, bu sub'ektga ijtimoiy muammolarni prinsipial hal qilish, umumiy va o'zgaruvchan xususiy vaziyatlarga nisbatan umumiy yechimni turlicha o'zgartirish imkonini beradi;

subyektiv - o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish, tashabbuskorlik va qoidalar ishlab chiqarishga tayyorlik, ijtimoiy voqelikda mustaqil ravishda yangi sabablarni topish qobiliyati va qabul qilingan va bajarilgan ishlar uchun javobgarlik hissi;

praksiologik (texnologik) - ijtimoiy normalar va ijtimoiy munosabatlar tizimida gumanitar-ijtimoiy texnologiyalar hamda kommunikatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati.

NATIJA VA MUHOKAMA

Fikrimizcha, umummadaniy kompetensiya bo'lajak o'qituvchidan odatdagidan tashqari ko'proq kuch-g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyat, yangi jamoaga kirishish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini, ma'lumotlarni tahlil qilishni talab qiladi. Shu sababli, ta'lim muassasalarida sifatli ta'limni amalga oshirish va samarasiz faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ishini innovatsion faoliyatga yo'naltirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashni ta'minlash uchun quyidagilarga e'tiborni qaratish kerak:

birinchidan, turli xil boshqaruv, innovatsiya va axborot texnologiyalarini ta'limga joriy etishda o'qituvchining layoqatini oshirish;

ikkinchidan, ta'lim-tarbiya sifatining mahsuli – natijani qo'lga kiritishda pedagogika va psixologiyaga oid tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, ularni amaliyotga tatbiq qilish, ilg'or natijalarni ommalashtirish, novator o'qituvchilarni munosib taqdirlash va boshqalar. Shundagina ta'lim muassasalari o'quv faoliyatining sifati o'quv jarayonini rejalashtirish, uni amalga oshirish, o'quv reja, dasturlarining mazmun-mohiyati bilan emas, balki tahsil oluvchilarning olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalari, mustaqil ravishda olgan bilimlari bilan bog'liq ta'lim natijasi sifati bilan belgilanadi va o'qituvchining yuqori darajadagi kompetentligi bilan baholanadi.

Umummadaniy kompetentlik haqida fikr yuritganda tanqidiy tafakkur haqida so'z yuritish o'rinlidir. Umummadaniyat doirasidagi tanqidiy tafakkur quyidagi jihatlarni o'z mazmuniga qamrab oladi:

- o'z fikriga qarshi turgan yangi fikr va g'oyalar uchun ochiqdigi;
- o'z fikr va qarashlarida xatolarga yo'l qo'ymaslik, borlarini bartaraf etishga intilishi;
- turli fikrlar orasidan to'g'ri va noto'g'rilarni tarafdashlik qilmasdan, ob'ektiv ravishda farqlashga intilish;
- o'zi tushuna olmagan masala yuzasidan tanqidiy fikr bildirmaslik, tushunmasligini tan olish;
- fikrdagi asoslangan va asoslanmagan xatolarni farqlash va h.k.

XULOSA

Yuqorida bayon etilganlar asosida, bo'lajak o'qituvchilarida umumadaniy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish shaxs ongi va xotirasini mustahkamlash, milliy va madaniy qadriyatlarni asrab-avaylash, milliy o'zlikni anglashda tarixiy merosning ulug'vorligini singdirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarida umumadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida milliy qadriyatlarni asrash, ularni o'rganish va saqlab qolishga qaratilgan tadqiqotchilik tizimini yaratish mumkin bo'ladi.

Umummadaniy bilim va ko'nikmalar tarixiy, ma'naviy va madaniy qadriyatlar, merosni o'rganishni, anglashni, ularni asrab-avaylashga qaratilgan dunyoqarashni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020 yil 23 sentabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – B.488.
3. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-tom. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – B.400.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B.222.
5. Abu Rayhon Beruniy. Tarayhalar (Javohirotdan). – T.: Meros, 1991. – B.47.
6. Boltaeva M.J. Bo'lg'usi tarix o'qituvchilarida tarixiy ideallarga doir bilimlar sosida umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish / Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Chirchiq, 2023. – B.147.
7. Davletshin M.G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 134 b.

PEDAGOGIKA

8. Mavrulov A. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – 80 b.
9. Mardanov Sh.Q. Pedagog kadrlarni ta'limiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari: Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2006. – 302 b.
10. Odob-axloq kitobi / Jadid adabiyoti namoyondalari: M.Behbudiy va boshqalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 192 b.
11. Рашидова Г.Ф. Ўқитувчиларнинг ижтимоий-маданий компетенцияси замонавий малакали мутахассиснинг тайёрлашнинг шarti сифатида. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. -Чирчиқ. : ЧДПИ. 2022. – Б. 31.
12. Tojiev M., Ziyomhammadov O. Milliy pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiqi va uni yoshlar intellektual salohiyatini yuksaltirishdagi o'rni. – T.: MUMTOZ SO'Z, 2010. – 290 b.
13. Ulug' mutasavvuf. Shayx Najmiddin Kubro tavalludining 860 yilligiga bag'ishlab tayyorlangan metodik-bibliografik qo'llanma. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – B.88.
14. Узлуксиз мажбурий таълим тизимини битирувчиларининг тайёргарлик даражасига ва зарурий билимлар мазмунига қўйиладиган талаблар. – Т.: РТМ, 2015. –Б. 208.
15. Falsafa: qomusiy lug'at (Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov). – T.: Sharq, 2004. – 496 b.
16. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. -Тошкент: Шарқ, 2001.
17. Қодиров П. Амир Темур сиймоси. – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 348 б.
18. Қуронов М. Болам бахтли бўлсин, десангиз (Ота-оналар учун). – Т.: Маънавият, 2013. – 320 б.